

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulug‘bek Saydanovich</i> O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i> BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO‘RIQLASH, QOROVULLIKNI O‘TASH VA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH MASALALARI TAHLILI	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i> ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i> O‘ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i> THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo‘minov Nodirbek Botir o‘g‘li</i> IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Исламтудинов Вадим</i> СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i> BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i> ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i> ME‘YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI.....	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i> YURIDIK TA‘LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo‘raev Anvar Muxamadiyevich</i> IJTIMOIIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i> ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i> ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i> O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i> SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i> ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Axmedova Dilbar, Shavkatova Shirin</i> ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i> EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqutova Dilafruz</i> IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i> TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i> ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i> FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i> TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i> BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i> FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i> ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i> THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i> SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i> HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
<i>Kamola Hatamova</i> HUUJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	207-210

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i> PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGAMA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i> METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE	217-222
<i>Mutalipova Lola Farxhadovna</i> SMART-KONTRAKTY I BLOKCHAYN: VYZOVY DLYA DOGOVORNOGO PRAVA V RESPUBLIKE UZBEKISTAN.....	223-234
<i>Normurodova Aziza Azimjon kizi</i> PRAVOVOE REGULIROVANIYE SEKSUALNOGO NASILIYA S ISPOLZOVANIEM .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloevna</i> RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	242-246

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i> MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI.....	253-261
<i>Davydova Ruffina Arturovna</i> ROLYA GUMANNOY PEDAGOGIKI V PREODOLENIYE AGRESSII I OTCHUZHDENIYA SREDI SHKOLNIKOV	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i> OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i> DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI: O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i> TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i> MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i> IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i> TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

Received: 2 June 2025
Accepted: 15 June 2025
Published: 30 June 2025

Article / Original Paper

THE NOTIONS OF PHENOMENOLOGY, PHENOMENON AND THEIR INTERPRETATION IN MODERN LINGUISTICS

Mamatova Feruza Makhmadovna

National University of Uzbekistan

Faculty of Foreign Philology

Associate Professor of the Department of English Linguistics, PhD

Abstract. This paper explores the concepts of phenomenology and phenomenon within the framework of modern linguistics. It examines how phenomenological methods contribute to the understanding of language as a reflection of human consciousness and lived experience. The study focuses on the interpretation of linguistic phenomena through intentionality, context, and subjectivity. It also highlights the influence of Edmund Husserl's ideas on current linguistic theories, including cognitive and discourse linguistics. By integrating philosophical and linguistic perspectives, the research emphasizes the importance of meaning-making, perception, and the role of the speaker in constructing linguistic reality.

Keywords: phenomenology, phenomenon, modern linguistics, intentionality, subjectivity, interpretation, cognitive linguistics.

FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Mamatova Feruza Maxammadovna

O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, PhD

E-mail: feruzahon26@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola fenomenologiya va fenomen tushunchalarining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Tilshunoslikda fenomenologik yondashuv tilni inson ongining ifodasi va subyektiv tajribaning aks ettiruvchisi sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada Edmund Gussserlning asosiy g'oyalari, ularning kognitiv va diskursiv tilshunoslikdagi ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, fenomenlarni tilda qanday namoyon bo'lishi, ularni talqin qilishda kontekst, intensionallik va idrokning o'rni muhokama qilinadi. Tahlillar til orqali inson tajribasini tushunishga xizmat qiladi. Til birliklari orqasidagi yashirin ma'no va mazmunni ochib berish fenomenologik metodlar orqali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv zamonaviy tilshunoslikda interdiscipliner tadqiqotlar uchun muhim asos yaratadi.

Kalit so'zlar: fenomenologiya, fenomen, zamonaviy tilshunoslik, intensionallik, subyektivlik, talqin, kognitiv yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N27>

Kirish. Antropotsentrizm tadqiqotning o'ziga xos tamoyili sifatida shundan iboratki, muayyan hodisalarni tahlil qilishda aynan inson boshlang'ich nuqta hisoblanadi va uning yakuniy maqsadlarini aniqlash uchun tahlil jarayoniga jalb etiladi. Fan obyektlarini o'rganish esa insonning hayotiy faoliyati uchun ularning ahamiyatiga va uning shaxsiy xususiyatlarini takomillashtirishga muvofiq ravishda amalga oshiriladi [1, 211 b.]. Tilshunos olimlar

ta'kidlaydilarki, lingvokognitiv tadqiqotlarda olamni anglash jarayonida inson omilining ahamiyatiga e'tibor qaratmaslik mumkin emas. Masalan, N.N.Boldirev, "tilning antroposentrik xususiyati, xususan, shunda namoyon bo'ladiki, har bir inson o'z nutqiy faoliyatida dunyoning tuzilishini shunchaki aks ettirish bilan cheklanmaydi deb ta'kidlaydi. U o'z ongida uni o'ziga xos tarzda quradi, shaxsiy dunyoqarashini shakllantiradi, ma'nolarni o'zi yaratadi va ularni ifodalash uchun til vositalarini tanlaydi. Dunyoning bu ko'rinishi, aslida, uning muayyan talqini bo'lib, unda olam har doim ma'lum bir tarzda tushuntirilgan aqliy tuzilma sifatida namoyon bo'ladi [2,1715 b.]. Shuni ta'kidlash joizki, ilmiy muammolarni qo'yish va yechish tizimi an'anaviy tarzda ma'lum bir paradigma doirasida o'rganiladi. Paradigma masalasi dastlab T.Kun tomonidan uning "Ilmiy inqiloblar tuzilishi" nomli asosiy asarida ko'tarilgan. Faylasuf paradigmani "muayyan vaqt davomida ilmiy hamjamiyatga muammolarni qo'yish va ularni yechish modelini taqdim etadigan, barchaning e'tirofiga sazovor bo'lgan ilmiy yutuqlar" sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi". Ilmiy paradigmaning o'zgarishi asta-sekin emas, balki inqilob, o'ziga xos ilmiy portlash natijasida sodir bo'ladi. Bu hodisa ilmiy hamjamiyat u yoki bu muammoni hal qilish yo'llarini muqobil tarzda ko'rib chiqish uchun yetarli kuch to'plaganida yuz beradi. T.Kun ta'kidlaganidek, paradigmaning o'zgarishi atrofdagi dunyoni o'zgartiradi, deb aytib bo'lmaydi. Biroq, bu hodisa olimlarni u yoki bu tadqiqot muammosiga qarashlari burchagini o'zgartirishga majbur qiladi [3, 11 b.]. Demak, umumqabul qilingan ilmiy an'ana o'zgargan paytda, olimga atrofdagi dunyoga boshqacha nazar solish va uni yangicha tarzda ko'rib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Shakllangan yangi lingvistik paradigma tildagi aksariyat tushunchalarga o'zgacha yondashishni, boshqa bir tushunchalarga esa til muammosi sifatida qarashni va yana bir qator masalalarni o'rganib chiqishni taqozo etmoqda. Bu borada bahs-munozaralar esa talaygina, masalan, A.F.Losev tilshunoslik fanini qattiq tanqid qilgan, chunki "zamonaviy mantiq, psixologiya va fenomenologiyaning barchasi tilshunoslarning e'tiboridan chetda qolib, ularga umuman ta'sir ko'rsatmasdan o'tib ketmoqda" [4, 6 b.]. Zamonaviy tilshunoslik so'zning maqomi va uning nutqiy fikrlash faoliyatidagi funksional rolini tubdan qayta ko'rib chiqish zarur bo'lgan chegaraga yetib keldi. So'zning mohiyatini tushunishda tilshunoslik tafakkurining yangi — fenomenologik darajasiga o'tish lozim. Bu darajada so'z ongning ichki ontologik tuzilmasi va fikr aksi sifatida qaraladi. So'zning o'ziga xos fenomenologik ma'nosi va fenomenologik turdagi maxsus metodologik asosi haqida fikr yuritish kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Falsafiy fenomenologiya so'z haqidagi fenomenologik tasavvurlarni rivojlantirishga allaqachon o'zining hissasini qo'shgan bo'lib, tilshunoslikdagi fenomenologik tadqiqotlar ufqlarini belgilab bergan. So'zning chuqur mohiyatini anglashga qaratilgan bir qator mashhur faylasuflar va ruhshunoslarning (V.Gumboldt, E.Gusserl, G.Shpet, P.Florenskiy, L.S.Vigotskiy, M.M.Baxtin, A.F.Losev, N.Xomskiy, U.Eko, J.Derrida va boshqalar), shuningdek, tilshunoslarning (K.P.Zelenetskiy, I.A.Boduen de Kurtene, A.A.Potebnya, G.Giyom, V.V.Vinogradov va boshqalar) dohiyona kashfiyotlari haqida so'z yuritish mumkin.

Ular so'zning ichki, tub mohiyatini tushunishga tamomila yangicha yondashuvning asosiy tamoyillarini shakllantirib, kelajakdagi tilshunoslik tadqiqotlari ufqlarini belgiladilar hamda so'z ma'nosi muammosini yechishda tub burilish yasash imkoniyatini yaratdilar. Shu asosda so'zning yaxlit, tizimli fenomenologik tushunchasini (fenomenologik tilshunoslik) rivojlantirish imkoni paydo bo'ldi. K.A.Svasyaning quyidagi fikriga qo'shilmasdan iloj yo'q:

“Biz fenomenologiyaga ongimizning mos va mohiyatli qobiliyatlarini ozod qilgani uchun minnatdormiz. Biroq biz bu qobiliyatlardan steril laboratoriya sharoitida emas, balki kundalik hayotning qaynoq o‘rtasida foydalanishni istaymiz. [5, 175 b.]”

Fenomenologiya asoschisi Gusserl fenomenologik refleksiyaga quyidagicha mukammal ta’rif bergan: “Bu shunday refleksiyadirki, unda bizga ruhiy hodisalar o‘zining mohiyati bilan tushunarli bo‘ladi. Bu refleksiya nazariy maqsadlarda amalga oshiriladi va izchil tarzda olib boriladi. Natijada, harakatchan va oquvchi o‘ziga xos “Men” hayoti, ong hayoti faqat yuzaki ko‘rib chiqilmasdan, balki mushohada orqali o‘zining muhim tarkibiy qismlariga muvofiq ravishda va biz avval aytganimizdek, barcha qirralari bilan tahlil qilinadi” [6, 12 b.].

Fenomenologik lingvistik tadqiqotlarning asosiy tamoyili so‘zning nutq va tafakkur jarayonida shakllanadigan barcha tur, daraja va ko‘lamdagi ma’nolarning yorqinligi, harakatchanligi va kuchini idrok etish bilan bog‘liq. A.F.Losev shunday yozadi: “Har bir so‘z va har bir til elementi cheksiz miqdordagi turli xil ma’no nozikliklari bilan to‘yingan bo‘lib, biz hatto eng oddiy suhbat o‘tishi uchun so‘zlarimizda bu nozikliklarning qanchalik ko‘p bo‘lishi zarurligini o‘zimiz ham sezmay qolamiz. Shu bois, har bir til elementining cheksiz ma’no yuklamasi tilning

o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi va faqat shu nuqtada biz avval aytgan “so‘zning asosiy ma’nosi” tilda ifodalaydigan fikrlarimizning jonli va haqiqiy dinamik manzarasiga aylanadi” [7, 141 b.].

Tahlil va natijalar. So‘zning fenomeni uning ongda til tuzilmalari ongga berilgan yoki hodisa sifatida e’tirof etiladi, natijada til tuzilmalari eydetik mohiyatlar, ya’ni ideal mazmun egalari sifatida tan olinadi. “Bu yerda so‘z ifoda yoki belgi emas, kerakli mazmunga yetib borish uchun shifrini ochish kerak bo‘lgan narsa ham emas, balki o‘zi sezgilar, idroklar va tasavvurlar, his-tuyg‘ular, ohang, instinktiv yoki impulsiv harakatlar, irodaviy zo‘riqish va boshqa shu kabilarning majmuasidan iborat bo‘ladi.” [8, 35 b.].

Demak, so‘z lisoniy shaxsning fenomenologik tajribasi sohasining butun tuzilishida tushunilishi kerak. Fenomenologik tilshunoslikning strategik yo‘nalishi

fikr va so‘z o‘rtasidagi munosabatlarning to‘liq qamrovini aniqlash, nutqiy-fikrlash uzluksizligida so‘zning mazmuniy tuzilishini shakllantirish mexanizmlarini o‘rganish hamda Gusserl ta’biricha “dahshatli chuqurlikka” ega bo‘lgan ongning cheksiz labirintlariga sho‘ng‘igan holda so‘zning fenomenologik maqomini belgilashdan iborat. U so‘z haqidagi tasavvurni kengaytirishga, uning oziqlantiruvchi manbalaridan kelib chiqib, ichki jarayonlar manzarasini yoritishga qaratilgan. Shubhasiz, fenomenologik tilshunoslik fikr va so‘zning o‘zaro tashkil topish mexanizmlarini anglashga intilish orqali hali tushunilmagan va o‘rganilmagan sohaga kirib boradi. Biroq fenomenologiya fani ongning o‘z-o‘zidan ma’no kasb etuvchi hayotini va shunga mos ravishda so‘zning ongdagi mavjudligi hamda faoliyatini tasvirlash va sharhlash imkoniyati ongning o‘zida ildiz otgan, degan farazdan kelib chiqadi.

E.Gusserl, Kyoler, N.Xomskiy, M.Xaydegger, M.K.Mamardashvili va boshqalar ta’kidlaganidek, inson ilmiy fanlar paydo bo‘lishidan ancha oldin aqliy hayotning deyarli barcha sohalaridan xabardor bo‘lgan. So‘z o‘zida fikrning “izlari” yoki “tamg‘alarini” mujassam etgani bois, u orqali ongning bevosita namoyon bo‘lgan tuzilmalari, holatlari va shakllarini “tutib olish” (G.Giyom atamasi bo‘yicha) mumkin. Fenomenologik tilshunoslik til hodisalarini ularning ma’no chegaralarida anglab yetish orqali hali tushunilmagan yoki o‘rganilmagan sohaga kirib boradi, til hodisalarini ularning ichki mohiyatida yangidan yoki boshqacha tushuntirish va

talqin qilishni taklif etadi. Soʻz maʼnosi muammosi fenomenologik tilshunoslik imkoniyatlari doirasida yotadi.

Bir-biriga raqobatlashuvchi paradigmalarda tilshunoslarning tilni nafaqat ijtimoiy hayot hodisasi, balki insonni boshqa biologik turlardan yuksaltiradigan fenomen ekanligini tushunmasliklari faktini yashira olmaydi. Shu oʻrinda fenomen va fenomenologiya haqida, uning lingvistik tadqiqotlardagi oʻrni yuzasidan batafsil maʼlumot berib oʻtishni joiz topdik. Fenomenologiya termini ikki tarkibiy qismga ega: “fenomen” va “logos,” yunoncha φαινόμενον va λόγος terminlariga borib taqaladi. Bu fan nomi boshqa fanlar, masalan, teologiya, biologiya, sotsiologiya kabilarning nomi singari tuzilgan boʻlib, ularning birinchi qismi oʻz predmetini — hayot, jamiyat va hokazolarni koʻrsatadi. Shunga koʻra, fenomenologiya — bu fenomenlar (mohiyatlar) haqidagi fandır.

Deyarli barcha ilmiy manbalar fenomenologiya faning predmeti “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida” [9, 95 b.] fenomenologiyaga va fenomenga quyidagi taʼrifni taqdim etadi: “(fenomen va ...logiya) — 1) falsafiy fan; falsafa tarixida turlicha: hissiy bilishni tanqid qiladigan fan sifatida (I. G. Lamberg, I. Kant), falsafaning vujudga kelishi, ongni tarixiy tadqiq etish shakllarini oʻrganadigan taʼlimot sifatida (G. Gegelning «Ruh fenomenologiyasi»), psixik fenomenlarni bayon etuvchi psixologiyaning bir qismi sifatida (F. Brentano, A. Meynong) talqin etiladi; 2) falsafiy oqim, uning prinsiplarini 20-a. boshida E. Gusserl taʼriflab bergan. U bir tomondan, F. ratsional empirizm va pozitivizm bilan bogʻliq ekanligini qayd etsa, ikkinchi tomondan esa, naturalistik obyektivizm va skeptik relyativizmni tanqid qiladi. Fenomenni yoʻqotilgan va unutilgan qadriyatlarini topishga koʻmak beruvchi falsafiy arxeologiya deb biladi. Fenomen ekzistensializm va ho. zamon falsafasidagi boshqa oqimlarning manbalaridan biri boʻlgan”. “FENOMEN (yun. phainomenon — sodir boʻluvchi) — 1) gʻayrioddiy, kamdan kam boʻladigan hodisa, fakt; 2) his-tuygʻu tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi falsafiy tushuncha (bu maʼnoda oʻz mohiyati jihatdan intellektual mushohada sifatida namoyon boʻluvchi noumenning qarama-qarshisi). “Fenomen” atamasini Aristotel “koʻrinuvchi”, “tuyuluvchi” maʼnosida ishlatgan. Leybnis esa bu soʻzni tajribadan maʼlum boʻlgan dalillarga nisbatan qoʻllagan. I.Kant Fenomen tushunchasi yordamida mohiyatni hodisadan keskin ajratishga uringan va hodisani bilish mumkin, mohiyatni esa bilish mumkin emas deb hisoblagan” [10, 96 b].

Mashhur “Stanford Encyclopedia of Philosophy” ensiklopediyasi deyarli yuqoridagi mazmunga yaqin taʼrif berdi: “Fenomenologiya fani dastlab tajriba yoki ong tuzilmalarini oʻrganuvchi soha sifatida taʼriflanishi mumkin. Aslida, fenomenologiya “hodisalar”ni oʻrganadi: narsalarning koʻrinishi, ularning bizning tajribamizda namoyon boʻlishi yoki biz narsalarni qanday idrok etishimiz, yaʼni tajribamizda narsalar qanday maʼno kasb etishi.

Fenomenologiya ongli tajribani subyektiv yoki birinchi shaxs nuqtai nazaridan oʻrganadi. Falsafaning bu sohasi boshqa asosiy falsafiy yoʻnalishlardan farqlanadi va ular bilan bogʻliq: ontologiya (borliq yoki mavjudlik haqidagi taʼlimot), epistemologiya (bilim haqidagi taʼlimot), mantiq (toʻgʻri fikr yuritish haqidagi taʼlimot), etika (toʻgʻri va notoʻgʻri xatti-harakatlar haqidagi taʼlimot) va hokazo” [11].

Fenomenologiya aslida falsafa fanining yoʻnalishi boʻlib, XX-asrda chuqur oʻrganilish boshlangan. E.Gusserlning “Логические исследования” [12, 45] asarida fenomenologiyaning bosh gʻoyalari keltirilgan. Unga koʻra fenomenologiya koʻplab sohalar, fanlar va yoʻnalishlar tadqiqiga kirib ulgurgan. Masalan, sotsiologiya, axloqshunoslik (etika), estetika, psixologiya,

pedagogiga va yana boshqa ijtimoiy sohalar. Fenomenologiyaning tilshunoslik uchun foydasi haqidagi masala hamon dolzarbligini yo'qotmayapti. XX asr boshlarida A.F.Losev ta'kidlaganidek, o'sha davrdagi "rus tilshunosligi qadimiy psixologizm va sensualizm zanjirlarida qolib, ayanchli holda hayot kechirayotgan edi", biroq, olimning fikricha, rus ilmfanida g'oyat muhim bir hodisa mavjudki, u falsafiy doiralardan kelib chiqmoqda. Bu hodisaning keng tilshunoslar jamoasi ongiga qachon yetib borishi hali noma'lum. Mazkur hodisa Gusserl va uning maktabi tomonidan yaratilgan fenomenologik ta'limotdir [13, 615 b.].

Xulosa. Hozirgi kunda fenomenologiya tilshunoslarning ham "ongiga yetib bordi." XXI asr tilshunosligini to'liq asos bilan fenomenologik tilshunoslik yoki "ichki shakllar tilshunosligi" deb atash mumkin. Uning qiziqish doirasini so'zning "til ortidagi" makonining chuqur qatlamlari tashkil etadi [14, 231]. Oxirgi o'n yillikda N.Xomskiy, R.Bervik, M.Baxtin kabi tilshunoslar tobora ko'proq Homo loquens – so'zlovchi inson fenomeniga murojaat qilmoqdalar, shu qatorda V.I.Senkevich "... fenomenologik tilshunoslik bugungi kunda til haqidagi ta'limotning shubhasiz haqiqatidir" deb ta'kidlaydi [15, 369 b.].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Кубрякова Е. С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX века: опыт парадигматического анализа / Е. С. Кубрякова // Язык и наука конца XX века. – М., 1995. – С. 212.
2. Болдырев, Н. Н. Сравнительные конструкции как механизм вторичной интерпретации знаний о мире / Н. Н. Болдырев, Е. Д. Блохина // Журнал Сибирского федерального университета. Сер. Гуманитарные науки. – 2022. – Т. 15. – № 11. – С. 1715.
3. Кун Т. Структура научных революций / Т. Кун ; с введ. ст. и доп. 1969 г. – М. : Прогресс, 1977. – С. 11.
4. Лосев А.Ф. Философия имени. М.: Издание автора, 1927. – С. 6.
5. Свасьян К.А. Феноменологическое познание. Пропедевтика и критика. М.: Академический Проект; Альма Матер, 2010. – С. 175.
6. Гуссерль Э. Феноменология // Логос. 1991. №1. –С.12-21.
7. Лосев А.Ф. Языковая структура: учеб. пособие. М., 1983. – С. 141
8. Шпет Г. Философско-психологические труды. М.: Наука, 2005. – С.35-36.
9. Fenomenologiya/Fenomen. O'zME. Sh-harfi Birinchi jild. T.: 2000. – Б.95-96
10. Fenomenologiya/Fenomen. O'zME. Sh-harfi Birinchi jild. T.: 2000. – Б.95-96.
11. <https://plato.stanford.edu/entries/phenomenology/#WhatPhen>
12. Гуссерль Э. Логические исследования. Т. 1: Прологомены к чистой логике. Пер. с нем. Бернштейн Э.А. Ред. Франк С.Л. Москва: Академический проект. 2011.
13. Лосев А. Ф. Бытие — имя — космос/Сост. и ред. А. А. Тахаис оди.—М.: Мысль, 1993.— С. 615с.
14. Карманова З. Я. Феноменологические аспекты содержательной структуры слова. Калуга: Издательство «Эйдос», 2014. – С. 231с.
15. Сенкевич В. Феноменологическая лингвистика. Этические начала и принципы языка / В. Сенкевич. –2020. – 369 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).